

## BANK LIKVIDLIGI TUSHUNCHASI VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR

Эргашев Азамат Заропжонович

**Annotatsiya:** Banklar o'z majburiyatlarini to'liq bajarishi uchun mijozlari oldida ishonchli imidjiga ega bo'lishi lozim. Bu ishonch esa banklarning likvidligi negizidan kelib chiqadi. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida tijorat banklari o'z faoliyatlari barqarorligini ta'minlashi uchun, avvalo, likvidlikka, to'lov qobiliyatiga, daromadlilikka muntazam e'tibor qaratishi talab etiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud tijorat banklarining hisobot davri davomida vakillik hisobvaraqlarida mablag'lari yetarli bo'lishi kuzatilgani holda, hisobot davri o'rtasida vakillik hisobvaraqlari sezilarli tushib ketmoqda va ushbu holat ularning likviddigiga ham ta'sir qilmoqda.

**Kalit so'zlar:** bank, iqtisodiyot, likvidlik, aktivlar, brutto aktivlari, depozit, bank resurslari.

**Аннотация:** Чтобы банки могли полностью выполнять свои обязательства, они должны иметь надежный имидж перед своими клиентами. Это доверие основано на ликвидности банков. Чтобы обеспечить стабильность своей деятельности в условиях модернизации экономики, коммерческие банки должны, прежде всего, регулярно уделять внимание ликвидности, платежеспособности и рентабельности. Анализ показывает, что, хотя действующие коммерческие банки имеют достаточные средства на своих представительских счетах в течение отчетного периода, их представительские счета в середине отчетного периода существенно сокращаются, и такая ситуация влияет на их ликвидность.

**Ключевые слова:** банк, экономика, ликвидность, активы, валовые активы, депозит, банковские ресурсы.

**Abstract:** In order for banks to fully fulfill their obligations, they must have a reliable image in front of their customers. This trust is based on the liquidity of banks. In order to ensure the stability of their activities in the conditions of modernization of the economy, commercial banks must first of all regularly pay attention to liquidity, solvency, and profitability. The analysis shows that, while the existing commercial banks have sufficient funds in their representative accounts during the reporting period, their representative accounts are significantly decreasing in the middle of the reporting period, and this situation affects their liquidity.

**Key words:** bank, economy, liquidity, assets, gross assets, deposit, bank resources.

Ma'lumki, mamlakatning moliyaviy-iqtisodiy inqirozga yuz tutishi oqibatida bank mijozlarining moliyaviy imkoniyatining pasayishi, ularga ajratilgan kreditlar qaytarilishining susayishi, bank depozitlari (omonatlari)dan mablag'larni olib qo'yishi jarayonlari yuz beradi, va aksincha, iqtisodiyotning rivojlanishi esa banklarga

qo'shimcha mablag'larining kelib tushishi hamda bank resurslarining shakillanishi uchun zamin yaratadi. Banklarning faoliyatiga miqdoriy baho beruvchi, ishonchligini ta'minlovchi va uning faoliyatiga aniq tashxis qo'yuvchi vositalaridan biri bu – bankning likvidligi hisoblanadi.

Bankning barqaror rivojlanishi uning likvidlik darajasining ta'minlanishini talab etadi. Bank likvidligi nafaqat bankning barcha kontragentlari oldidagi moliyaviy va qarz majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarilishini ta'minlash imkoniyatini beradi, balki bank kontragentlarining kreditlarga bo'lgan ehtiyojlarini ham ta'minlanishini belgilab beradi. Likvidlik tijorat banklari faoliyatida eng asosiy tushunchalardan biridir. Likvidlik tijorat banklari ishonchliligi va barqarorligi assosini tashkil etadi va ularning to'lovga qobiliyatli bo'lishiga zamin yaratadi. Banklar likvidligi ularning to'lov qobiliyati va ishonchli bo'lishini ta'minlashda zarur kategoriya hisoblanadi. Shu o'rinda banklarning likvidligi, to'lov qobiliyati va ishonchliligi to'g'risida fikr bildirsak.

Tijorat banklarining mijozlar va kreditorlar oldida o'z imidjini saqlab qolishi uchun eng avvalo ularning likvidligi va to'lov qobiliyati mustahkam bo'lishi lozim. Bank likvidligi bo'yicha risklarning ortishiga ta'sir qiluvchi bir qancha omillar mavjudki, bu omillar bank likvidligiga alohida ahamiyat berishni va bank likvidligi bo'yicha xatarni doimiy ravishda kuzatib borishni talab qiladi. Shu sababli banklar o'z daromadidan kechib bo'lsa ham, likvidlikni saqlab turishga majbur. O'z navbatida, resurslar banklarning daromadlilagini oshirish maqsadiga yo'naltirilsa, unda bu bankning likvidligiga ta'sir ko'rsatadi.

Demak, banklarning likvidliligi va daromadliligi o'zaro teskari mutanosiblikda namoyon bo'ladi. Banklar ishonchliligi deganda ularning o'z mijozlari oldidagi majburiyatini, ya'ni birinchi talab bilanoq amalga oshirish layoqatiga ega bo'lgan faoliyatini tushunamiz. Ishonchlilikka erishish uchun esa banklar likvid va to'lov qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Banklar ishonchliligining amal qilish shartlarin [2]. Tijorat banklari likvidligi, to'lovga qobiliyati bank ishonchlilik ko'rsatkichlarini ifodalovchi va bir-biri bilan chambarchas bog'liq elementlardir. Likvidlik - bank majburiyatlarni kerakli vaqtda, ya'ni talab etilgan vaqtida bajara olish qobiliyatidir. To'lov qobiliyati esa bank majburiyatlarini bajara olish qobiliyatidir.

Agar bank depozitlarni qaytarish vaqtি etganda bajara olmasa, u vaqtinchalik likvid bo'lmaydi, lekin bankka mablag'lar tushgandan keyin u to'lay oladi va o'zining likvidligini tiklaydi. Ushbu vazifani banklar tashqi qarzlar evaziga xam amalga oshirishlari mumkin. O'z vaqtida bank majburiyatlarini bajara olmasligi bankning to'lov qobiliyatiga ta'sir etmaydi.

To'lovga qobiliyatli bank u ertami, kechmi o'z majburiyatlarini albatta bajaradi. Likvid bank esa, o'z muddatida majburiyatlarini bajaradigan bankdir. Bank amaliyoti ko'rsatishicha, qisqa vaqt mobaynida banklar o'z zimmasidagi majburiyatlarini bajarishi orqali raqobat sharoitida mijozlari va imidjini saqlab qoladi. Mijozlarni yo'qotmaslik va kelgusida yangi mijozlarni jalb qilish orqali banklar daromad

manbaini oshirib, samarali faoliyat yuritishni davom ettiradi, chunki banklarning barcha operatsiyalari faqat va faqat mijozlar uchun bo'lmosh'i lozim.

Tijorat banklari likvidligining nazariy asoslarini tahlil qilish uchun uning lug'oviy ma'nosini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Likvidlik atamasi lotincha "Likuidus" so'zidan olingan bo'lib-"oquvchan", "suyuqlik", "o'zgaruvchan" degan ma'nolarni anglatadi. Tushunchaning iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, bu moddiy qiymatliklarning va boshka aktivlarning tezda sotilishi va pulga aylanishini ifodalaydi. Bank majburiyatlarining o'z vaqtida, to'liq bajarilishi va ularni yo'qotishlarsiz ta'minlashning zarurligi bank rahbarlaridan likvidlikning o'zgarishiga ta'sir qiladigan omillarni tahlil qilib borishni talab etadi.

Xususan, bank likvidligining o'zgarishi uning faoliyatidan tashqarisida mavjud bir qator tashqi omillar bilan ham bog'liq. Bu omillar tarkibiga mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy ahvol, pul va qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanganlik darjasи, banklararo bozorning barqarorlik va rivojlanganlik darjasи, Markaziy bankning qayta moliyalashtirish imkoniyati, Markaziy bankning nazorat funktsiyasi va uning samaradorligi kabi omillar kiradi. Likvidlik holatini samarali kuzatishga hamda favqulotda holatlar uchun etarli darajada amaliy harakat rejasini ishlab chiqishga qobiliyatsizlik aksariyat hollarda banklarni likvidlik inqirozga, hatto bankrotlikka olib keladi. Likvidliliги past bo'lgan vositalarga uzoq muddatlarga qo'yilgan mablag'lar hisobidan qisqa muddatli likvidlikka bo'lgan ehtiyojlarni qondirish va yuqori foyda olish o'rtasidagi muvozanatni saqlash bankni boshqarishning asosiy komponenti hisoblanadi.

Banklar likvidligini ob'ektiga ko'ra, manbasiga ko'ra, vaktinchalik xususiyatiga ko'ra, to'lov mablag'larining turi bo'yicha ajratib tahlil qilishimiz mumkin. Banklararo bozorning rivojlanishi vaqtinchalik bo'sh to'rgan pul mablag'larini banklar o'rtasida qayta taqsimlanishiga imkoniyat tug'diradi. Undan bank o'zining likvidligini ta'minlashi uchun turli xil muddatda mablag'larni jalb etishlari mumkin, xususan, bir kundan to bir necha oygacha bo'lgan muddatni tashkil etadi. Bu mablag'larni banklararo kredit resurslari bozoridan qay darajada jalb qilishi iqtisodiy kon'yunkturaga, bank nufuziga va banklararo bozordagi boshqa tijorat banklarning faoliyati bilan bog'liq.

Banklararo kredit resurslari bozori mamlakatimizda o'z faoliyatini yuritmoqda, unda bank resurslarini sotish va sotib olish indikatorlari e'lon qilinadi va qatnashish huquqini olgan banklar bo'sh to'rgan bankning resurslarini sotadi, o'zining majburiyatlarini bajarish uchun etishmagan mablag'larini boshqa banklarning mablag'lari hisobidan jalb qiladi. Bu jarayon banklararo bozordagi eng arzon va qulay usullardan biri hisoblanadi. Bunda bank o'zining resurslarini mijozlar uchun joylashtirmsandan, balki boshqa banklarga o'zining bo'sh to'rgan resurslarini joylashtirish siyosatini olib boradi.

Daromad keltiruvchi aktivlarning ulushi qanchalik yuqori bo'lsa, ular shunchalik bankka daromad olib keladi. Bunda bank yuzaga keladigan xatolarni o'z zimmasiga

oladi. Aktivlarning tarkibini tartibga solish uchun idrokka tayanishni taqozo etadi. Bank rahbarining foyda olishga to'xtovsiz intilishi aktivlar bilan bir vaqtning o'zida likvidlikni ham yo'qotib qo'yishi mumkin. Aktivlarning diversifikatsiyalanishi bank likvidligiga va uning umumiyligi faoliyatiga ijobiy ta'sir etuvchi omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Ularning diversifikatsiyalanishida bank aktivlari, kredit qo'yilmalari, qimmatli qog'ozlar portfeli, xorijiy valyutalar tarkibi va boshqa shu kabi ko'rsatkichlarda o'z aksini topadi.

Aktivlar qanchalik diversifikatsiyalangan bo'lsa, bankning likvidlik darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Banklarda depozitlarning sifati ularning barqarorligiga bog'liq. Depozitlar qanchalik barqaror bo'lsa, bank likvidligi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Ular yuridik va jismoniy shaxslarning bo'sh to'rgan pul mablag'lari hisobidan muddatli, jamg'arma va talab qilib olinguncha depozitlar (omonatlar), jamg'arma (depozit) sertifikatlari, boshqa depozitlarning turlari bilan shakllanadi. Depozitlarning barqaror qismining ko'payib borishi bankning likvidli mablag'lariga bo'lgan talabini kamaytiradi.

Bank menejmenti bankning faoliyatini boshqarishda va uning likvidligining o'zgarishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bankni samarali boshqarishda bank siyosati, yuksak darajadagi joriy va strategik vazifalarni amalga oshirish, aktivlar va passivlarni boshqarish mexanizmi, mas'uliyatli qarorlarni qabul qilish kabi jarayonlari o'z aksini topadi. Bank menejmenti kapitalning etarligi, aktivlarning sifati, daromadliligi va yuqori likvidlik darajasi ko'rsatkichlarining natijalariga bog'liq, chunki bu ko'rsatkichlarning darajasi qanchalik barqaror bo'lsa, banklarning menejmenti ham yuqori sifatli bo'ladi. Bank faoliyatining sifatiga bankning malakali xodimlari ham ta'sir ko'rsatadi [3].

Pul bozoridan pul mablag'larini jalb qilish imkoniyati bankning moliyaviy ahvolini va banklararo kreditlarning jalb qilingan mablag'lar ichida qancha miqdorda ulushi mavjud ekanligini aniqlab beradi. Olimlar kapital bazasining sifati va miqdorini tijorat bankining likvidligiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida e'tirof etadi. Ko'pincha bankning xususiy kapitali uzoq muddatli manbalar sifatida bank balansining passivida ishtirok etadi va u mablag'larning immobilizatsiyalash darajasini belgilab beradi. Bank kapitali uzoq muddatli aktivlar bilan qiyin sotiladigan aktivlarga joylashtirilsa, u holda ularning bank likvidligiga sustroq ta'sir qiladi. Tijorat bankining likvidligini xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning likvidligi sifatida qarash mumkin.

Ma'lumki, tijorat bankining likvidligi to'g'ridan-to'g'ri, bankdagi hisobvaraqlar orqali o'tuvchi pul oqimlarining xususiyatlari bilan bog'liq. Aynan, tijorat banklarining xususiyati pul oqimlari tizimi sifatida, bank likvidligi tushunchasining o'ziga xos komponenti sifatida aloqa qiladi, bunda likvidlik tijorat bankining mavjud majburiy sharti bo'lib qoladi. Bank uchun eng muhim hozir va kelajakda kirim va chiqim qilinadigan pul oqimlarining muvozanatini ta'minlashning real va potentsial imkoniyatlari zarur [4].

Tijorat bankining likvidligi dinamik holatda bo'lganda, u balansning statistik ko'rsatkichlari bilan ifodalanadi va likvidlik darajasining o'zaro nisbatini aniqlash orqali belgilanadi. Pul oqimlarida yuzaga keladigan salbiy tafovutlar zaxira manbalarining hisobidan qoplanishi mumkin. Fikrimizcha, pul mablag'larini resursi sifatida qisqa muddatga bankka jalb qilish, ularni uzoq muddatli aktivlarga joylashtirish, iqtisodiy va siyosiy nobarqarorlik natijasida mablag'ning chiqib ketish jarayonlari bankning likvidlik darajasini pasaytiradi, va aksincha, xalqaro kapitallarning banklarga kirim qilinishi bankning likvidlik darajasini oshiradi. Shu bilan birga, bank 22 likvidligening o'zgarishiga «bankka jalb qilingan resurslarga belgilangan foiz stavkasi bilan milliy valyuta kursining o'zgarishi», kreditlar va depozitlar uchun o'rnatilgan foiz stavkalari ham ta'sir etadi.

Xulosa qilib aytganda, bank likvidligiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish va ularning o'ziga xos xususiyatlarini batafsil o'rganish bankning «og'riq» nuqtalarini va mavjud muammolarning yechimlarini topishga, ularni yuzaga kelishining oldi olinadi va ular o'z vaqtida bartaraf etish uchun amaliy yordam beradi.

Likvidlik, deganda avvalo moddiy boyliklarning qisqa muddat ichida va hech bir qiymat yo'qotishlarsiz naqd pulga aylanish qobiliyati tushuniladi. Biron bir moddiy boylik likvid hisoblanishi uchun: - doimiy ravishda o'zining ikkilamchi bozoriga; - muvozanatlari bahoga; - yuqori aylanish tezligiga ega bo'lishi lozim. Tijorat banklari likvidlilagini boshqarishdan avval likvid mablag'larga ehtiyojni hisoblash zarur.

Likvid mablag'larga bo'lgan talab va taklif doimo o'zgaruvchan bo'ladi, masalan, bankning mijozlari bo'lgan aholi asosan oy boshi yoki oxirida oylik maoshlarini oladilar va shu paytda depozit mablag'lari hajmining o'sishi kuzatiladi. "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 39-moddasiga ko'ra, banklar mablag'larning saqlanishi hamda omonatchilar oldidagi majburiyatlarining bajarilishi uchun o'z mijozlari va omomnatchilar oldida javobgardirlar [1].

Likvid mablag'lar bo'yicha choralarini ta'minlash quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Likvidlik davrida oldindan belgilangan reja bo'yicha kredit va depozit mablag'larining hajmi bashorat qilinishi kerak;
2. Shu davr uchun oldindan belgilangan reja bo'yicha kredit va depozit mablag'lari kutiladigan dinamikasi hisoblanishi kerak;
3. Likvidlikni boshqarish bo'yicha boshqaruvchi rejadagi davr uchun nettolikvid pozitsiyasining qiymatini aniqlashi zarur.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida tijorat banklari uchun asosiy muammolardan biri bankning likvidligi va daromadliligening eng maqbul darajasini aniqlashdir.

Unga erishish uchun bank aktivlarini samarali boshqarish katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, banklar uchun aktivlarni boshqarish asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Har kanday bank moliyaviy bozorning yuqori darajada rivojlanishi bilan iqtisodiy barqarorlik sharoitida ham ma'lum jiddiy qiyinchiliklarni engib o'tishiga to'g'ri keladi. Lekin inflyatsiya darjasini yuqori va bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida

bu tashqi omillar tijorat banklari moliyaviy ahvoliga ta'sir qilib, bank aktivlarini boshqarish masalasini birinchi darajaga kuymokda. Tijorat banklari aktiv operatsiyalarini boshqarish o'z oldiga balans likvidligiga rioya qilgan holda, bank foydaliligini ta'minlash singari ikki yagona maqsadni qo'yadi.

Likvidlilik - bankning tashqi baholash mezoni bo'lsa, uning daromadliligi uning ichki baholash mezonidir. Ular o'rtasidagi aloqadorlik tahlil bankning likvidliligi ahamiyatining ustunligi to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradi. Bank likvidliligi muomaladan chiqarilgan depozitlar xajmini, aktivlarni qaytarish va majburiyatlarni bajarish muddatidagi farqlarni, pul bozoridagi tebranishlarni, rejalashtirilmagan harajatlarni qoplashi kerak.

Tijorat banklari likvidlikni oshirishda avvalo balansining aktiv qismida bank likvidligini boshqarish uchun sotilishi oson bo'lgan yuqori likvidli aktivlarni, masalan DQMO ni harid qilish yoki ularga egalik qilish yoxud zaxiralarni ko'proq tashkil qilish va sotilishi qiyinchilik tug'dirmaydigan pul mablag'lari aylantirish ko'p vaqt ni olmaydigan qisqa muddatli qo'yilmalarni amalga oshirish yo'li bilan erishishlari mumkin. Banklarning likvidliligini oshirishda avvalo joriy likvidlik holati baholanadi, so'ngra resurslarga bo'lgan talabning davriy o'zgarib turishi, resurslarga bo'lgan talablarning mo'ljallanayotgan o'zgarishlari, zarur resurslar manbalari o'rganib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 26 noyabrdagi "2017-2021 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PQ-1438-sonli qaroriga muvofiq, tijorat banklarining kapitallashuv darajasi, barqarorligi va likvidliligin oshirish ustuvor yo'nalishlardan biri etib belgilandi [5].

Bazel qo'mitasining yangi tavsiyalarini tadbiq etish; - 2017-2021 yillar mobaynida tijorat banklarining yalpi kapitalini qo'shimcha aktsiyalar chiqarish hisobidan o'rtacha 2,1 marta ko'paytirish; - bank tizimi ustav kapitali tarkibida nodavlat sektori ulushini yanada oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish;

- 2017-2020 yillarda aholi va xo'jalik sub'ektlarining tijorat banklaridagi depozitlari hajmini 2,5 martaga oshirish;

- 2011-2015 yillarda tijorat banklari tomonidan korxonalarni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha investitsiyaviy loyihalarni va iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini kreditlash hajmini 2,8 martaga oshirish;

- 2017-2021 yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash hajmlarini 2,7 barobarga kengaytirish;

- banklar kapitali, aktivlari, boshqaruvi, daromadlari, majburiyatlarining sifati va darajasini xolis baholanishini ta'minlovchi CAMEL (S) tizimining yangi talqinini tadbiq

qilishni ko'zda tutgan holda tijorat banklarining moliyaviy holatini baholash tizimini yanada takomillashtirish;

- tijorat banklarida hisob va hisobotning zamonaviy texnologiya va uslublarini yangicha yondoshuvlarini shakllantirish va joriy etish, moliya-bank axborotlari sifat darajasini oshirish, etakchi xalqaro reyting tashkilotlari talablariga muvofiq undan keng foydalanish imkoniyatlarini yaratish;

- yetakchi xalqaro reyting kompaniyalari tomonidan qo'llaniladigan va alohida banklar va butun bank tizimining butun jahonda qabul qilingan baholash ko'rsatkichlarining yanada yuqori darajasiga chiqish yo'lidagi ilgarilashlarini xolisona baholash imkoniyatini beruvchi xalqaro me'yor, mezon va andozalar asosida tijorat banklari faoliyatini va butun moliya-bank tizimini tahlil qilish va baholashning zamonaviy tizimini joriy qilish;

- har chorakda bank Kengashi yig'ilishlarida bank Boshqaruv raisi va a'zolari, Ichki audit bo'limi rahbarlarining bank aktivlari, kredit va investitsiya portfellari holati, bank kapitalini o'sishini ta'minlash, daromadlilik va likvidlilik ko'rsatkichlari, shuningdek bank tizimi oldiga qo'yilgan boshqa ustuvor vazifalarning ijrosi to'g'risidagi masalalar bo'yicha hisobotlarini ko'rib chiqish va boshqalar.

Bank nazorati bo'yicha Bazel Qo'mitasi tomonidan yangidan qabul qilingan Bazel III tavsiyalariga muvofiq tijorat banklarining kapital etarliligiga nisbatan talablarni oshirish, tijorat banklari tarkibida ularning inqiroz holatlari ta'siriga barqarorligini ta'minlaydigan barqarorlashtirish zaxiralarini yaratish hamda barqaror ravishda banklarning likvidliliginu ta'minlash maqsadida 2019 yil davomida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank tomonidan Jahon banki va Xalqaro valyuta fondining xalqaro ekspertlari bilan birgalikda bank nazoratiga oid me'yoriy hujjatlarni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish ishlari olib borildi.

Natijada 2019 yil 29 dekabrda Markaziy bank Boshqaruvining "Tijorat banklari likvidliliginu boshqarishga bo'lgan talablar to'g'risida"gi Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi 36/1-sonli Qarori19 qabul qilindi. Mazkur Nizomga bank nazorati bo'yicha Bazel Qo'mitasining yangi tavsiyalarini asosida tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan bo'lib, ular bosqichma-bosqich amal qila boshlaydi. Xususan, yangi tartibga asosan bank balansi aktivlarining tavakkalchilik darajasi besh guruhga bo'linib, 0-, 20-, 50-, 100-, va 150-foizlik tavakkalchilik koeffitsientlari joriy qilindi. Ya'ni, sud jarayonidagi va belgilangan tartibda undirilmagan aktivlarga 150 foizli tavakkalchilik darajasi qo'llaniladi.

Yangi talablarga asosan, 2019 yil 1 yanvardan boshlab bank kapitali etarliligining eng kam darajasi bakning kredit tavakkalchiligi summasi bilan birga bankning operatsion va bozor tavakkalchiliklarini ham hisobga oladi. AQSHning Moliyaviy Muassasalar Ustidan Nazorat Bo'yicha Federal Kengashi (Federal Financial Institutions Examination Council - FFIEC) tomonidan ishlab chiqilgan va ingliz tilidagi "Capital adequacy", "Assets quality", "Management", "Earnings", "Liquidity" - (kapital, aktivlar sifati, boshqaruv, daromad va likvidlilik) so'zlarining bosh harflari bilan nomlanuvchi

CAMEL – bank faoliyatiga reyting baholari berish bo'yicha yangi agentliklararo tizim joriy qilindi.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimida ham ushbu chora-tadbirlarining bosqichma-bosqich tatbiq etilishi Respublikamiz tijorat banklari tomonidan Bazel qo'mitasining yangi talablarini to'liq bajarilishiga, kapital etarligi ko'rsatkichining keskin ravishda pasayib ketmasligiga va banklarning joriy likvidlilik me'yorlarini barqaror ravishda ta'minlashiga imkon beradi. 2019 yilda tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimini yanada takomillashtirishda asosiy e'tibor:

- alohida banklar moliyaviy holatining yomonlashishini oldini olish hamda kredit tashkilotlarining o'zaro bog'liqligini kamaytirish maqsadida yangi xalqaro andozalarga muvofiq kapitallashuv va risklarni boshqarishga bo'lgan talablarni yanada kuchaytirishga;

- bank tizimidagi tizimli tavakkalchiliklarni aniqlashga qaratilgan makroprudentsial tahvilning zamonaviy usullarini joriy qilish bo'yicha ishlarni davom ettirishga;
- ilg'or xalqaro tajribaga asoslangan holda banklarning likvidlik riskiga ta'sirchanligini makromodellardan foydalangan holda stress-testlardan o'tkazish amaliyotini takomillashtirish va joriy qilish ko'lamenti yanada kengaytirishga;
- iqtisodiyotni, jumladan, xususiy sektor korxonalari va aholini kreditlash ko'lamlarining uzlusiz kengaytirib borilishi jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kredit riskini kamaytirish borasidagi zaruriy tadbirlarni amalga oshirib borishga;
- risklarni boshqarishning ichki tizimlariga katta urg'u berilgan holda harajatlar va daromadlarning maqbul tarkibi va darajasini ta'minlash orqali banklarning operatsion faoliyati samaradorligini yanada oshirish choralarini ko'rishga;
- turli moliyaviy bosqichlarda shakllantiriladigan zaxiralar bo'yicha harajatlarning banklarga tushadigan yuklamasini kamaytirish maqsadida dinamik zaxiralar tizimini rivojlantirish kabi zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratiladi. Tijorat banklarida korporativ boshqaruva tizimini xalqaro me'yor va andozalar asosida yanada takomillashtirish borasidagi ishlarni davom ettirish.

Xususan, 2019 yilda: 64 - tijorat banklaridagi korporativ boshqaruva organlari faoliyatining me'yoriyhuquqiy bazasini yanada takomillashtirish hamda uning yuqori darajadagi shaffofligini ta'minlash maqsadida turli me'yoriy hujjatlar va ko'rsatmalarda banklardagi korporativ boshqaruva bo'yicha belgilangan norma va talablarni yagona hujjatga birlashtirish;

- banklarga yangi mijozlar, investorlar va hamkorlarni jalb qilish sharoitlarini yanada yaxshilash maqsadida banklarning boshqaruva organlari faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarning aktsiyadorlar, omonatchilar, boshqa manfaatdor shaxslar hamda moliya va pul bozori ishtirokchilari uchun ochiqligini ta'minlash borasidagi ishlarni kengaytirish;

- banklar faoliyatini boshqarish jarayonida samarali va to'g'ri qarorlar qabul qilinishini ta'minlashda jamoaviy tajribani rivojlantirish maqsadida bank Kengashining maqbul tarkibi, Kengash a'zolarining belgilangan malakaviy talablarga rioya etishlari ustidan

nazoratni kuchaytirish;  
- bank Kengashlari tarkibini shakllantirish jarayonida yuqori malakali va betaraf a'zolarni tanlash va tayinlash tartibini joriy etish orqali Kengashlar mustaqilligini oshirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilmoqda. Tijorat banklari kapitallashuv darajasini yanada oshirish, resurs bazasini mustahkamlash va diversifikatsiyalash.

Bunda asosiy e'tibor:

- tijorat banklarining kapitallashuv darajasi kamida 20 foiz miqdorda o'sishini, shuningdek, bank aktsiyalarini chiqarish va ularni aholi va boshqa investorlar o'rtasida joylashtirish orqali bank ustav kapitalining o'sib borishini ta'minlashga;
- bank tizimining umumiy ustav kapitalida nodavlat sektor ulushini oshirish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlarni sifatli amalga oshirishga;

- aktsiyalar chiqarilayotganligi va ularning fond birjasida sotilayotganligi haqida respublika va mahalliy ommaviy axborot vositalarida olib borilayotgan targ'ibot ishlarining ta'sirchanligini yanada oshirishga qaratiladi. O'z navbatida, tijorat banklari resurs bazasini yanada mustahkamlash maqsadida bozor vositalari va mexanizmlaridan samarali foydalanish hisobiga, shu jumladan, aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda omonatlar va depozitlarning yangi turlarini muntazam joriy etib borish, muomalaga uzoq muddatli obligatsiyalar, depozit sertifikatlari va boshqa qimmatli qog'ozlar chiqarishga, shuningdek, subordinarlangan qarzlarni faol jalb etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Tijorat banklaridagi omonatlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Hukumat qarorini va unga muvofiq Markaziy bankning tegishli me'yoriy hujjatini ishlab chiqish hamda unda:

- tijorat banklarining depozit siyosatini yanada takomillashtirish; XULOSA. Tijorat banklari likvidlilagini ta'minlash, uni talab darajasida oshirish, va shu bilan birgalikda, kutilayotgan daromadga ega bo'lish kuchli likvidlilik strategiyasini talab etadi, ya'ni tijorat banki bir vaqtning o'zida likvidlikka erishgan holda maksimal daromad olishning samarali pozitsiyasiga ega bo'lishi lozim. Bank rahbariyati likvidlikni rejalashtirishi hamda bankning qisqa muddatli majburiyatlarini ularni qaytarib olishda to'lashga etarli darajada naqd pul va qisqa muddatli aktivlarga ega bo'lishi lozim.

Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar xatto kapital resurslaridan ham arzon, shu bilan birga transformatsiya riski eng yuqori bo'lgan resurs hisoblanadi. Shuning uchun tijorat banklari joriy likvidlilik koeffitsientini 2015 yil 1 yanvardan boshlab 100 foiz ta'minlashlari lozimligini hisobga olib, 2019-2020- moliyaviy yillar davomida tijorat banklari mijozlariga talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlaridagi mablag'larini muddatli depozitlarga joylashtirishini taklif qilishlari lozim [1]. Bugungi kunda tijorat banklarining depozitlar bo'yicha majburiy zaxiraga tortilgan resurslari bilan birga, bankning kredit portfelidagi muammoli aktivlari

bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi tashkil qilinadigan maxsus zaxiralari ham Markaziy bank tomonidan majburiy zaxiralar hisobraqamlariga olib qo'yilmoqda. Banklar balansidagi mavjud aktivlarining sifatlilagini doimiy nazorat qilib borishlari lozim.

Aks holda banklarda mavjud yuqori likvidli aktivlaridan to'liq foydalana olmaslik riski yuzaga kelishi mumkin [2]. Banklar kredit portfelining sog'lomligini oshirish, berilgan kreditlar va lizing xizmatlarining o'z vaqtida undirilishi ustidan doimiy monitoring o'rnatilishi lozim [3]. Bundan tashqari, kelgusida vujudga kelishi mumkin bo'lgan potentsial muammoli kreditlarni oldindan aniqlash va ular bilan alohida ishslash tizimini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'lardi.

Likvidlikni samarali boshqarishda esa muddatli depozitlar hajmini oshirish zarur. Tijorat banklarining muddatli depozitlari miqdorini oshirish yo'lli bilan ularning resurs bazasini mustahkamlash maqsadida:

- yuridik shaxslarning muddatli depozitlariga to'lanadigan foiz stavkalarining ijobiy darajasini ta'minlash va asosan 1 yildan ortiq muddatlarga muddatli depozitlar jalg qilinishi lozim;
- aholining muddatli omonatlarining hajmini yanada oshirish, bankdan tashqari pul aylanishini qisqartirish va shu yo'llar orqali tijorat banklarida naqd pul etishmasligiga barham berish lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Aktsioner tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida" gi farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloq qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tijorat banklarining kapitallashish darajasini oshirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida".
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 26-noyabardagi "2017 – 2021 yillarda respublika moliya – bank tizimini yanada isloq qilish va barqarorligini oshirish xamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PQ – 1438 qarori.
6. Shavkatovich, S. R. (2023). PROBLEMS IN THE PRACTICE OF DIGITAL ASSET CIRCULATION IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN. World Economics and Finance Bulletin, 18, 39-47.